ELEKTRON O‘QUV VOSITALARINI YARATISH UCHUN DASTURIY VOSITALAR MAVZUSINI O‘QITISHDA “INSERT” STRATEGIYASI METODIDAN FOYDALANISH

Ashurov Jasur Djo‘rayevich
Osiyo xalqaro universiteti “Umumtexnik fanlar” kafedrasi dotsenti
Tel.: +998907127280,
E-mail: djxp@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘tishning innovatsion metodlaridan biri bo‘lgan “INSERT” strategiyasi metodini Raqamli texnologiyalar fani mavzulari doirasida qo‘llash haqida to‘xtalib o‘tilgan. Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun raqamli va axborot texnologiyalariga oid “Elektron o‘quv vositalarini yaratish uchun dasturiy vositalar” mavzusi haqida ma’lumot berilib, yuqoridagi usulning amalda qo‘llash bo‘yicha namuna sifatida keltirilgan.

Kalit so‘zlar. innovatsion metodlar, pedagogik innovatsiya, raqamli texnologiyalar, “INSERT” strategiyasi metodi, elektron o‘quv vositalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается применение одного из инновационных методов обучения — стратегии «INSERT» — в рамках тематики дисциплины «Цифровые технологии». Представлена информация по теме «Программные средства для создания электронных учебных материалов», относящейся к цифровым и информационным технологиям для студентов высших учебных заведений. Также приводится пример практического применения указанного метода.

Ключевые слова. инновационные методы, педагогические инновации, цифровые технологии, метод стратегии «INSERT», электронные учебные средства.

Annotation. This article discusses the application of the "INSERT" strategy method, one of the innovative teaching methods, within the framework of topics covered in the subject of Digital Technologies. It provides information on the topic "Software Tools for Creating Electronic Learning Materials," which relates to digital and information technologies for higher education students. An example of the practical implementation of the aforementioned method is also presented.

Keywords. innovative methods, pedagogical innovation, digital technologies, INSERT strategy method, electronic learning materials.

Kirish

Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida talabalarning fanlardan egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining hozirgi zamon talablariga mos sifatli va samari bo‘lishiga erishishda, o‘quv jarayonini tashkil etishning an’anaviy usullari, shakl va vositalari bilan bir qatorda, o‘qitishning zamonaviy usullari, interfaol hamda muammoli o‘qitish kabi

ISSN 3030-3907

innovatsiun metodlari ham muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim va tarbiyaga innovatsion yondashuv, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va foydlanishni anglatadi.

Pedagogik innovatsiya bu- ta’lim tizimi va uning komponentlarini yoki uning alohida qismlarining xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan, ta’lim muhitiga yangiliklarni kirituvchi, maqsadli o‘zgarishlardir [1].

Oliy ta’lim muassasalarida turli fanlarni o‘qitish jarayonida foydalanilayotgan pedagogik yondoshuvlarni takomillashtirish orqali talabalarni fanlarga qiziqtirishda, ularning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va turli manbalardan olinayotgan matnli ma’lumotlarga nisbatan tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy pedagogik tadqiotlar hamda pedagogik tajribalar natijalari tasdiqlamoqda [2]. Hozirgi kunda fanlarni o‘qitishning shunday interfaol pedagogik metodlardan biri, aksariyat rivojlangan mamlakatlarning ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida keng foydalanilayotgan “INSERT” strategiyasi metodi sanaldi.

METODOLOGIYA.

“INSERT” strategiyasi metodi amerilalik psixologlar D. Still, K.Meredit va Ch.Tempplar tomonidan XX asr 90 yillari ikkinchi yarmida taklif qilingan. Ushbu metod tanqidiy fikrsh texnologiyasida qo‘llaniladi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda INSERT abbreviaturasi **“**Interaktiv ta’limiy samarali o‘qish va fikrlash tizimi” ma’nosini anglatadi. Strategiya o‘zlashtirilishi mo‘ljallangan yangi mavzuga oid talabalarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash hamda ularning matn bilan ishlaganda faolligini qo‘llab - quvvatlash uchun xizmat qiladi [3]. Strategiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- dastlab kichik guruhlar shakllantiriladi va nomlanadi;
- guruhlardan o‘zlashtirilishi mo‘ljallangan mavzuga oid 2 tadan fikr bildirish so‘raladi;
- talabalar o‘z mulohazalarni navbat bilan bayon etadilar;
- bayon etilgan fikrlar yozib boriladi;
- so‘ngra yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni o‘qituvchi guruhlarga tarqatadi;
- barcha guruhlar matn bilan tanishib chiqishadi va o‘zlari bildirgan fikrlarning matndagi ma’lumotga qay darajada muvofiqligini aniqlaydilar (o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
- guruh a’zolari o‘z shaxsiy qarashlarini bayon etishadi va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
- guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi;
- har bir lider o‘z guruhlari natijasi bilan barchni tanishtiradi;

ISSN 3030-3907

- guruhlarning yondashuvlarini umumlashtirish asosida yakuniy xulosa chiqariladi.

Strategiyani qo‘llashda talabalar quyidagi sxemaga muvofiq faoliyatini tashkil etadilar:

1-jadval.

Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma’nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topgan bo‘lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topmagan bo‘lsa
D	Matnda bir-biriga zid fikrlar mavjud bo‘lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug‘ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2-jadval.

Liderlarning hisobotidan so‘ng guruhlarning natijalarini o‘rganishda ushbu jadvaldan foydalaniladi:

Maxsus belgilarning tartib nomeri	Guruhlar nomlari			
	Abdulla Avloniy	Behbudiy	Fayzulla Xojayev	Sadriddin Ayniy
1				
2				
3				

Strategiyani to‘g‘ri va samarali qo‘llash talabalarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Metodning “Elektron o‘quv vositalarini yaratish uchun dasturiy vositalar” mavzusini o‘qitishda qo‘llashda guruhlarga beriladigan matnlar.

1. **Elektron darslik va interaktiv kurslar yaratish dasturlari**

Elektron darslik va interaktiv kurslar yaratish uchun turli dasturiy vositalar mavjud. Ular yordamida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish mumkin.

1.1. Articulate Storyline

ISSN 3030-3907

Articulate Storyline bu professional interaktiv elektron ta’lim (e-learning) materiallari yaratish uchun mo‘ljallangan dastur. U asosan o'qituvchilar, instruktorlar, korporativ trenerlar va kontent yaratuvchilar tomonidan ishlatiladi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ***Slaydga asoslangan interfeys**: PowerPoint'ga o'xshash, shu sababli uni o'rganish juda qulay.*
- ***Interaktivlik qo'shish**: tugmalar, havolalar, sahifa o'tishlar, savol-javoblar (quiz) va boshqa interaktiv elementlar qo'shish imkonini beradi.*
- ***Quiz va testlar yaratish**: tanlovli testlar, to'g'ri/notog'ri testlar, so'rovlar va baholash topshiriqlarini tez va oson yaratish mumkin.*
- ***Ko'p formatda eksport qilish**: SCORM, AICC, xAPI (Tin Can API) kabi standartlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu uni LMS platformalari bilan integratsiyalash imkonini beradi.*
- ***Responsiv (moslashuvchan) dizayn**: HTML5 asosida ishlaydi va materiallar mobil telefon, planshet va kompyuterlarda to‘g‘ri ko‘rinadi.*
- ***Ekran yozib olish va video qo‘shish**: ekranlar, dastur ishlash jarayonlarini yozib olish va video qo‘shish mumkin.*
- ***Branching (tarqalayotgan ssenariylar)**: foydalanuvchining tanloviga qarab turli yo'llarni ko‘rsatadigan interaktiv hikoyalar yaratish imkonini beradi.*

1.2. iSpring Suite

iSpring Suite Microsoft PowerPoint dasturiga asoslangan bo'lib, interaktiv o'quv kurslari yaratishda ishlatiladi. **iSpring Suite** tarkibiga kiradigan vositalarga test va so‘rovlar yaratishga mo‘ljallangan **iSpring QuizMaker,** ekran yozish va video tahrirlash uchun **iSpring Cam Pro,** interaktiv dialoglar yaratish uchun **iSpring TalkMaster** va interaktiv jadvallar va xaritalar yaratishga mo‘ljallangan **iSpring Visuals** kiradi.

***iSpring Suite** asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:*

- ***PowerPoint integratsiyasi**: bevosita PowerPoint ichida ishlaydi. Oddiy taqdimotlarni to‘liq funksional e-learning kurslarga aylantirish mumkin.*
- ***Test va viktorinalar yaratish**: 14 dan ortiq turdagi testlar va savollar turi mavjud (multiple choice, matching, drag-and-drop va boshqalar).*
- ***Interaktiv dialoglar**: real hayotdagi suhbatlarni simulyatsiya qilish uchun interaktiv muloqotlar yaratish imkonini beradi.*
- ***Video va ekran yozuvlar**: ekranni yozib olish, video darslar tayyorlash va tahrirlash imkoniyati bor.*
- ***Rol o‘yinlari va ssenariylar**: foydalanuvchini vaziyatga "kiritib", tanlovlar orqali ssenariyni boshqarishga imkon beradi.*
- ***Mobil moslashuv**: tayyor kurslar telefon va planshetlarda ham to‘g‘ri ko‘rinadi.*

ISSN 3030-3907

- ***SCORM, xAPI, cmi5 va AICC qo‘llab-quvvatlashi****: kurslarni Learning Management System (LMS) tizimlariga yuklab, natijalarni kuzatish mumkin.*

2. Test yaratish va baholash tizimlari

Elektron ta'lim jarayonida test yaratish va baholash tizimlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va samarali baholash mumkin.

2.1. Quizlet

Quizlet o'quvchilar uchun interaktiv testlar yaratish va ularni vizual tarzda o'rganish imkoniyatini beradi. Uning asosiy xususiyatlari:

O'qitish rejimlari*:*

- ✓ ***Learn****: tizim sizni avtomatik ravishda tekshiradi va qaysi javoblarni yaxshi o‘zlashtirganingizni kuzatadi.*
- ✓ ***Flashcards****(kartochkalar) yaratish: so‘z va ularning tarjimasi, savol-javoblar yoki qisqa ma'lumotlarni kartochka shaklida tayyorlash mumkin.*
- ✓ ***Write****: savollarga yozib javob berish orqali mashq qilish.*
- ✓ ***Spell****: eshitgan so‘zlarni to‘g‘ri yozish mashqlari.*
- ✓ ***Test****: avtomatik ravishda test shaklida mashqlar yaratish.*
- ✓ ***Match****: moslashtirish (matching) o‘yinlari orqali mashq qilish.*

• **Tayyor darslar**: millionlab tayyor darslar va kartochkalar kutubxonasi mavjud — yangi dars yaratmasdan ham foydalanish mumkin.

• **Jamoaviy o‘rganish**: guruhlar tuzib, birgalikda mashq qilish imkoniyati.

• **Quizlet Live**: real vaqtda jamoaviy o‘yin shaklidagi o‘rganish rejimi, ayniqsa sinfda interaktiv darslar uchun foydali.

2.2. Kahoot!

Kahoot! real vaqt rejimida test o'tkazish imkoniyatini taqdim etadi. Kahoot! afzalliklari o'quvchilar o'yin shaklida testlarda qatnashishi, sinfda yoki masofadan turib interaktiv testlar o'tkazish imkoniyati va o‘qituvchilar uchun statistik ma'lumotlarni taqdim etishida namoyon bo‘ladi.

Uning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- ***Viktorinalar yaratish****: foydalanuvchi savollar va javob variantlari bilan o‘yin shaklidagi testlar tayyorlaydi.*
- ***Real vaqtda o‘ynash****: dars yoki uchrashuvda hamma bir vaqtda o‘yinga kirib, telefon, planshet yoki kompyuter orqali qatnashadi.*
- ***Mustaqil o‘rganish****: "Challenge" rejimi orqali testlar yechishi mumkin.*
- ***Savol turlari****:*
  - *Multiple choice (bir yoki bir nechta to‘g‘ri javob)*
  - *True/False (to‘g‘ri/notog‘ri)*
  - *Puzzle (tartiblash)*

ISSN 3030-3907


- *Type Answer (to‘g‘ri javobni yozish)*

- ***Rangli va dinamik dizayn**: har bir savol rangli va grafik elementlar bilan chiroyli ko‘rsatiladi, bu esa o‘rganishni qiziqarli qiladi.*
- ***Audio va rasm qo‘shish**: savollarga musiqa, ovoz yoki rasm biriktirish mumkin.*

Mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, guruh a’zolariga kerakli o‘rinlarda maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan fikrlarning to‘g‘ri yo‘nalishda ekanligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlar liderlaridan fikrlarni umumlashtirishni so‘raydi. Shuningdek o‘qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni talabalr to‘g‘ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi. Barcha kichik guruhlar tomonidan aniqlangan o‘xshash fikrlar umumlashtiriladi [4,5].

TAHLIL

Mazkur metod konsepsiyasi asosida Osiyo xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi paralel guruhlar talabalarida pedagogik tajriba - sinovlar o‘tkazildi, hamda nazorat guruhlaridagi an’anviy dars mashg‘ulotiga nisbatan tajriba guruhlarida interfaol metodlar jumladan “INSERT” strategiyasi metodi qo‘llanilganda samaradorlik yuqori ekanligini tahlil natijalari ko‘rsatib berdi (1-rasm).



3-rasm.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, “INSERT” strategiyasi metodi talabalarni matnlarni tahlil qila olish, o‘z fikrlarini bayon qilish, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, aniq xulosalalar chiqarishga o‘rgatadi, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkoniyat berdi. Yuqoridagi yangi pedagogik metodi asosida tashkil qilingan dars jarayonlari talabalar tomonidan

ISSN 3030-3907

ham ijobiy qabul qilindi. Ushbu metodning qo‘llanilishi ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.E. Bozorov, J. Ashurov. Tibbiyot oliygohlari talabalari uchun “qaytar aloqa” usulidan foydalanib “rentgen diagnostikasi” mavzusida dars-ma’ruza o‘tkazish // Ta’lim, fan va innovatsiya 3-son, 2022-yil, – S. 11-14.

2.Атахожаев В., Алибеков Ш.А. "Преимущество педагогического метода “Инсерт” и его значение в повышении степени успеваемости студентов" Экономика и социум, no. 3-1 (82), 2021, pp. 443-445.

3. Рахматова З. "Роль интерактивных методов в обучении студентов самостоятельному мышлению" Экономика и социум, no. 10-2 (101), 2022, pp. 521-524.

4. Djo‘rayevich, A. J. (2024). THE IMPORTANCE OF USING THE PEDAGOGICAL METHOD OF THE" INSERT" STRATEGY IN INFORMATION TECHNOLOGY PRACTICAL EXERCISES. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 425-432.

5. Djorayevich, A. J. (2022). EXPLANATION OF THE TOPIC" USE OF RADIOPHARMACEUTICALS IN GAMMA THERAPY" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS USING THE" THOUGHT, REASON, EXAMPLE, GENERALIZATION (THREG)" METHOD.

ISSN 3030-3907